

**TALABALARGA FRANTSUZ TILINI O`RGATISHDA
MADANIYATLARARO MULOQOT KOMPETENSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH**

Turdaliyev Davlatali Eraliyevich
(TDIU) Toshkent davlat iqtisodiyot
universiteti o`qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada chet tili darslarida talabalarning madaniyatlararo muloqoti kompetensiyalarini rivojlantirishning, lingvistik, sotsiolingvistik va pragmatik kompetensiyalarini shakllantirishning ahamiyati yoritilgan.

Kalit soʻzlar: chet tili, muloqot, taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanish, sosialingvistik, pragmatik, kompetensiya, malaka, koʻnikma.

Bugungi kunda yurtimizda chet tillarga boʻlgan eʼtibor yanada kuchaytirilmoqda. Chet tillarni egallash uchun barcha shart-sharoitlar va keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Chet tillarni oʻrganish, xorijda tahsil olish niyatida boʻlgan talabalar sonining tobora ortib borishi chet tillarni oʻqitishning mazmun va tuzilishiga qator oʻzgartirishlar kiritishga turtki boʻldi. Mamlakatda bir necha tillardan foydalanishga boʻlgan ehtiyojdan kelib chiqib, madaniyatlararo muloqot koʻnikmasi talabalarning muhim kasbiy tayyorgarligini oshirish uchun asos boʻlib xizmat qiladi. Chet tillarni oʻrganish har doim ham ustivor ijtimoiy masalalardan boʻlib kelgan. Bugungi kunda har qanday kasb egasiga chet tilini bilishi, chet tilda erkin muloqotga kirisha olishi talab etilmoqda.

Xorijda tahsil olish, xorijiy mamlakatlar bilan mustahkam aloqa oʻrnatish uchun avvalom bor oʻsha mamlakat tilini bilish, shu tilda erkin muloqotga kirisha olishni taqozo etadi. Tilning jamiyatda bajaradigan vazifalari cheksizdir. Til jamiyat taraqqiyoti, inson hayotining ajralmas qismidir. Inson uchun buyuk inʼom boʻlgan til muloqot vositasi boʻlishi bilan bir qatorda, dunyoni bilish, toʻplangan bilimni saqlash, uzatish, boyitishning ososiy manbasi hisoblanadi. Bilim toʻplash, axborot tarqatishdan holi hech qanday taraqqiyot, ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy rivojlanishni tasavvur qilib boʻlmaydi. Chet tillarni puxta egallagan madaniyatlararo muloqotga erkin kira oladigan mutaxassislargini murakkab va manfaatli ishlarni uddalay olishi mumkin. Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi haqida gapirar ekanmiz avvalo, kompetensiya soʻzining tom maʼnosiga eʼtibor qaratishimiz lozim. Shunday ekan kompetensiya tushunchasi lotincha “competere” – mos kelmoq soʻzidan olingan boʻlib, “oʻz kasbiga yaroqli, loyiq” degan maʼnoni anglatadi. Bundan tashqari ushbu soʻz keng maʼnoda umumiy yoki muayyan keng qamrovli masalalarni yechishda mavjud bilim va koʻnikmalarni amaliy tajribada qoʻllay olishni ham anglatadi.

Kompetensiya-kutilgan natijaga olib keluvchi faoliyat, egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotda qo'llay olish layoqatidir. Tilshunoslik tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak "kompetensiya" atamasi ilk bor N.Xomskiy tomonidan qo'llanilgan bo'lib, tildan foydalanish jarayonida faoliyatga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va malakalar majmui sifatida baho beradi. Lingvistik kompetensiya ya'ni bunda til material (fonetika, leksika, grammatika) haqida bilimlar va nutq faoliyati turlari (tinglab-tushunish, gapirish, o'qish va yozish) bo'yicha ko'nikmalarni egallash nazarda tutiladi. Sotsiolingvistik kompetensiya so'zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadigan kompetensiya hisoblanadi. Chet tilda bo'layotgan kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo'lganda takroran so'rash, uzr so'rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadigan kompetensiya bu pragmatik kompetensiyadir.

Keltirib o'tilgan ushbu kompetensiyalar talabalarning chet tildagi kommunikativ kompetensiyalarini rivojlanishiga, shakllanishiga olib keladi. Bundan ko'rinib turibdiki, kommunikativ kompetensiya ham tayanch kompetensiyalar asosida turadigan ham xususiy kompetensiyalar jamuljamidan kelib chiqadigan, kompetentlikni ta'minlab berishga xizmat qiladigan asosiy kompetensiyadir. O'z navbatida kommunikativ kompetentlik, lingvistik, sotsiolingvistik, diskursiv, strategik, ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy kompetensiyalar kabi kompetensiyalarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy-madaniy yondashuvning til ta'limidagi umumiy maqsadi talabalarni chet tili vositalari orqali ko'p madaniyatli dunyoda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasini rivojlantirish orqali faol hamkorlikka tayyorlashdir. Til muayyan ijtimoiy-madaniy voqelikni aks ettiruvchi vosita bo'lib, uni egallash orqali biz madaniyatga tegishli olam manzarasini ham egallaymiz. Til bilishning o'zi aslida madaniyat belgisining bir ko'rinishidir. Chet tilni o'rganish va bilish istagi ma'lum bir ijtimoiy-iqtisodiy muhitda, mavjud ehtiyojlar zahirida paydo bo'ladi. O'rganilayotgan til shu talablarga javob bergan taqdirdagina ommaviylashadi. Har bir ishni muvaffaqiyatli bajarish uchun mutaxassisga faqatgina ma'lum sohasini bilishning o'zi yetarli emas balki chet tillarni bilish ham talab etiladi.

Chet tillarni bilish u yoki bu sohaga oid yangiliklar va ishlanmalardan xabardor bo'lish, turli simpozium va konferensiyalarda qatnashish imkonini beradi. Chet tilini o'rgatishda talabalarga tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati haqidagi axborotlarni berib borish o'rinlidir. Tilda erkin muloqotga kirishish uchun faqatgina til materiallarini yaxshi bilish, og'zaki va yozma nutqda erkin muloqot qilish, tinglab tushunish ko'nikmalarini yuqori bo'lishi ya'ni nutq faoliyati turlari bo'yicha yuqori ko'nikmalarga ega bo'lish kifoya qilmaydi, balki til muhitini ahamiyati katta ya'ni o'zga til egalari bilan mustaqil aloqa o'rnatish, xorijlik hamkasblar bilan hamjihatlikka kelishishni bilish talab etiladi. Bunda madaniyatlararo muloqot

ko'nikmalarini o'zlashtirish va amaliyotda ulardan unumli foydalanishda yordam beradi. Barchamizga ma'lumki bizning buyuk ajdodlarimiz ham qadimdan ikki, uch tilni bilganlar. Bu esa ularga boshqa millat vakillari bilan erkin muloqot qilish va hamnafas yashash imkonini bergan. Shuning uchun ham, chet tilini o'qitishda talabalarning madaniyatlararo muloqot kompetensiyalarini rivojlantirib, shakllantirib borish nihoyatda muhim bo'lib, bu nafaqat chet tilini kerakli darajada chuqur o'zlashtirishga, balki turli mamlakatlar xalqlari o'rtasida keng miqyosli ijtimoiy-madaniy munosabatlarni o'rnatishga ham samarali ta'sir ko'rsatuvchi vositalardan biri hisoblanadi.

Chet tili darslarida talabalarni tili o'rganilayotgan mamlakatning milliy madaniyati, turmush tarzi, qadriyatlari, urf odatlarini o'rgatish orqali ularni tabiiy

sharoitdagi muloqotga tayyorlanadi, ularning axborot almashish ko'nikma va malakalarini takomillashtirish bilan muloqot paytida duch keladigan turli tushunmovchiliklarni oldini olishga o'rgatiladi. Dars jarayonida kinofilmlar, videolavhalar namoyish etish, og'zaki nutq mashqlarini o'tkazish, yozma nutqqa oid mashqlar bajartirish va maxsus nutqni amaliy qo'llash uchun maqsadli tayyorgarlik ko'rish, turli vaziyatlardagi rolli o'yinlardan foydalanish tavsiya etiladi. Madaniyatlararo muloqot bu-ikki madaniyat tashuvchilarining o'zaro aloqasidir, muloqot bu-axborot almashish jarayonidir. Madaniyatlararo muloqot turli madaniyat tashuvchilarining axborot almashinuvi bo'lib, suhbatdoshlarni turli madaniyat vakillari ekanligi ularning muloqotlarida yaqqol namoyon bo'ladi va suhbat jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Suhbatdoshlar o'zaro tasavvurlari, g'oyalari, qiziqishlari bilan o'rtoqlashishi, fikr almashish jarayonida o'z milliy madaniyati orqali qo'lga kiritgan ma'naviy boyliklarini namoyish etadilar, uni boyitib boradilar shuningdek suhbatdoshidan ham o'zini qiziqtirgan axborotlarni olishga erishadi.

Lingvistika va xorijiy tillarni o'qitish metodikasi bo'yicha yetuk mutaxassis Ter-Minasova fikri quyidagicha: "...pedagogik jarayonda madaniyatlararo muloqotda ishtirok eta olish qobiliyati asosiy o'rinni egallashi kerak. Bu ayniqsa hozir juda ham muhim, «xalqlar, tillar, madaniyatlarning bir-biriga aralashuvi mislsiz keng quloch yoyganida-o'zga madaniyatlarga bag'rikenglikni tarbiyalash, ularga nisbatan qiziqish va hurmat uyg'otish hamda o'zida o'zga madaniyatlardagi ortiqchalik, yetishmaslik yoki o'xshamasligidan g'ashlanish hissini yengish kabi muammolar turadi. Aynan shu munosabat bilan madaniyatlararo kommunikatsiya masalalariga nisbatan har tomonlama qiziqish uyg'ongan». Madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi madaniyat, falsafa, tarix, adabiyot, geografiya va mamlakatshunoslikka oid ma'lumotlarga asoslangan holda sotsiolisoniy komponentning rivojlanishiga, shakllanishiga yordam beradi. Turli xalqlarning o'ziga xos madaniyatining qadriyatlari hamda ularning jahon madaniyati taraqqiyotiga qo'shgan hissasi nuqtai-nazaridan o'rganishga yordam beradi.

Chet tilini o'qitishda madaniyatlararo muloqot kompetensiyasi tili o'rganilayotgan mamlakatning udumlari, an'analari haqidagi bilimlar asosida rivojlanadi, shakllanadi. Talabalarni chet tili darslarida madaniyatlararo muloqot jarayoniga tayyorlar ekanmiz, o'rganilayotgan xorijiy til, yangi madaniyat ularning nafaqat dunyoqarashiga, balki bilim, idrok, xotiralarini kengaytirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Har qanday til shu tilda muloqot qiluvchi xalq madaniyati tufayli mavjuddir. Madaniyat esa turli lingvistik va ekstralingvistik detallarda namoyon bo'ladi. Chet tili darslarida talabalarning madaniyatlararo muloqoti kompetensi, sosialingvistik va pragmatik kompetensiyalarini rivojlantirishning ahamiyati katta.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Елизарова Г.В. Культура и обучение иностранным языкам. -СПб.: КАРО, 2005. 352 с
2. Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: Учеб. пособие для студентов, аспирантов и соискателей по спец. "Лингвистика и межкультурная коммуникация". М., 2000. 262 с.
3. Беликов В.И., Крысин Л.П. Социолингвистика: Учебник для вузов. М.:Рос.гос. гуманитар.ун-т, 2001. 315с.
4. Фурманов В.П. Межкультурная коммуникация и лингвокультуроведение в теории и практике обучения иностранным языкам.- Саранск, 2014.
5. Походзей Г.В., Сергеева Н.Н. Развитие иноязычной межкультурной компетенции студентов в системе профессионального-ориентированного языкового образования. Монография. Екатеринбург, 2016.